FARG’ONA VILOYATI FURQAT TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 22 - avgust 165-11-164-Q/23 Furqat tuman hokimligi

Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish haqida

Hududlardagi aholi sonining o‘sayotganligi, umumiy o‘rta ta’lim maktablari qo‘shimcha tashkil etilib, yangi raqamlar berilganligini inobatga olgan holda maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish borasida hududlarni aniqlashtirish zarurati kelib chiqmoqda.

Shu munosabat bilan hamda tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining tuman hokimligiga Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risidagi murojaatini ko'rib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Furqat tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘ining Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risidagi murojaati qanoatlantirilsin.

2. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi har bir ta’lim muassasalari hudud va mikrohududlarga biriktirish jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror "Navbaxor" ro'znomasining navbatdagi sonida rasman e'lon

qilinsin hamda tuman hokimligi axborot xizmati (U.Bozorov) hokimlik veb-saytiga 1 kunlik muddatda joylashtirilishini ta'minlasin.

4. Mazku qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2022 yil 4 apreldagi 100-11-164-Q/22-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.A’zamov va tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i M.Ortiqovlar zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **J.Jumanov**

Furqat tuman hokimining
2023-yil 22-avgustdagi
165-11-164-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish jadvali

№	Muassasalar	Hududi
1	1-sonli umumta’lim maktabi	Besh echki MFY, Navbahor MFY (Furqat, Nurobod 1, Shifokorlar, Temiryo‘lchi 1, Temiryo‘lchi 2, Temiryo‘lchi 3, Temiryo‘lchi 4, Mustaqillik MFY Ittifoq 1, Ittifoq 2, Ittifoq 3, Ittifoq 4, Yangihayot 1, Yangihayot 2, Yangihayot 3, Shifokor, Mevazor ko‘chalari
2	2-sonli umumta’lim maktabi	Navbahor MFY (Navoiy, Nurobod 2, Nurobod 3, Shifokorlar, Temiryo‘lchi 5, Temiryo‘lchi 6, Temiryo‘lchi 7, Temiryo‘lchi 8, Temiryo‘lchi 9), Istiqlol MFY
3	3-sonli umumta’lim maktabi	Ko‘kdo‘ppi MFY
4	4-sonli umumta’lim maktabi	Tomosha MFY, Chekko‘prik MFY
5	5-sonli umumta’lim maktabi	Tomosha MFY (Qurultoy qishlog‘i), Qushchi MFY (Cheksharif qishlog‘i)
6	6-sonli umumta’lim maktabi	Qushchi MFY (Qushchi qishlog‘i)
7	7-sonli umumta’lim maktabi	Ardahshon MFY (Uzunchek qishlog‘i), Istiqlol MFY (Paxtaobod qishlog‘i)
8	8-sonli umumta’lim maktabi	Chirkay MFY Istiqlol MFY (namunali uylar)
9	9-sonli umumta’lim maktabi	Jangketmon MFY (Jangketmon qishlog‘i, Qulbobo qishlog‘i (Orasta va Olmazor ko‘chalaridan tashqari)
10	10-sonli umumta’lim maktabi	Qizilqiyoq MFY
11	11-sonli umumta’lim maktabi	Hayit MFY
12	12-sonli umumta’lim maktabi	Eshon MFY
13	13-sonli umumta’lim maktabi	Shunqor MFY (Shunqor qishlog‘i), To‘rg‘ay MFY
14	14-sonli umumta’lim maktabi	Kichik yangi MFY
15	15-sonli umumta’lim maktabi	Katta yangi MFY
16	16-sonli umumta’lim maktabi	Eski MFY (Eski shaharcha), Kapa qishlog‘i), Boltako‘l MFY (Boltako‘l qishlog‘i)
17	17-sonli umumta’lim maktabi	Chilgijiyda MFY (Chilgijiyda qishlog‘i)
18	18-sonli umumta’lim maktabi	Qo‘qonboy MFY
19	20-sonli umumta’lim maktabi	Shoyimbek MFY
20	21-sonli umumta’lim maktabi	Kaldushon MFY, Chilgijiyda MFY (Shotura qishlog‘i)
21	22-sonli umumta’lim maktabi	Ingichka MFY (Obodon qishlog‘i), O‘rtaqo‘rg‘on MFY (O‘rtaqo‘rg‘on qishlog‘i)
22	23-sonli umumta’lim maktabi	Ingichka MFY
23	24-sonli umumta’lim maktabi	Karmak MFY
24	25-sonli umumta’lim maktabi	G‘uncha MFY (Sho‘xay qishlog‘i), O‘rtaqo‘rg‘on MFY (Qo‘rg‘oncha qishlog‘i)
25	26-sonli umumta’lim maktabi	Chekchuvoldoq MFY, G‘uncha MFY (Soy bo‘yi mahallasi)
26	27-sonli umumta’lim maktabi	Porvontosh MFY, Sho‘r MFY (Sho‘r,Guliston, Chinobod qishloqlari)
27	28-sonli umumta’lim maktabi	Beshog‘a MFY
28	29-sonli umumta’lim maktabi	G‘allakor MFY
29	30-sonli umumta’lim maktabi	Sho‘r MFY (Tinchlik qishlog‘i)
30	31-sonli umumta’lim maktabi	Boltako‘l MFY (Sulton qishlog‘i)
31	32-sonli umumta’lim maktabi	Yangi MFY (Kimsanabod qishlog‘i)
32	33-sonli umumta’lim maktabi	Ardahshon MFY (Ardoxshon, Shaboda qishloqlari)
33	34-IDUM	Jangketmon MFY (Orasta ko‘chasi, Olmazor ko‘chasi)
34	35-sonli umumta’lim maktabi	Shunqor MFY (G‘irri qishlog‘i)
35	36-sonli umumta’lim maktabi	Bekabod MFY
36	37-sonli umumta’lim maktabi	Yangi MFY (Yangi, Surpa qishloqlari)
37	38-sonli umumta’lim maktabi	Katta yangi MFY (Olotoy qishlog‘i)